

"NURONIYLAR CHOYXONASI" BUNYO'D ETILADI



"NURONIYLAR CHOYXONASI" BUNYO'D ETILADI

Bahor fasli kelishi bilan yurtimizda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari avj oladi. Bugun tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev tumanda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirib, bu ishga bel bog'lagan saxovatpesha insonlar bilan uchrashdi. - So'x tumani hokimi tashabbusi bilan Soybozor mavzesida "Nuroniylar choyxonasi" tashkil etish niyatimiz bor. Bu ishga bugundan boshlab mahkam bel bog'lab ishlaymiz, - deydi So'x tuman "Nuroniylar" jamoatchilik Kengashi raisi Tojiboy Dodoboyev.

Tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev tashabbusi bilan Alisher Navoiy nomidagi yoshlar ilmiy-ijodiy markazi joylashgan hududda "Nuroniylar choyxonasi" tashkil etiladi. - Biz eng avvalo, nuroniylarimiz, ota-bobolarimizga mana shunday barhavo joylarda dam olish maskani barpo etib, ularning duoi poklarini olishimiz lozim, dedi tuman hokimi o'rganish jarayonida. Ushbu maskanni bunyod etish bo'yicha tuman hokimi o'zining tavsiya va takliflarini berdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2021-03-02 10:22:40